



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA  
VA MAKTAB  
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston  
Milliy Pedagogika  
Universiteti



No5(3)  
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

# M

# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 50 sahifa,  
1-may, 2026-yil.

## **BOSH MUHARRIR:**

Karimova E'zoza Gapijanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

## **BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

## **TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI**

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik  
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik  
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor  
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor  
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)  
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)  
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)  
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)  
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)  
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)  
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent  
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor  
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor  
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor  
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)  
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent  
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti  
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor  
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)  
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent  
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent  
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori  
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari  
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:** O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

#### EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

#### DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

#### EDITORIAL BOARD MEMBERS:

**Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician**

**Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician**

**Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor**

**Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor**

**Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor**

**Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)**

**Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)**

**Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)**

**Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)**

**Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)**

**Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)**

**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**

**Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor**

**Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor**

**Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor**

**Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)**

**Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor**

**Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor**

**Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service**

**Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor**

**Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)**

**Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor**

**Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor**

**Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics**

**Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor**

**Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region**

**Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun**

**Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences**

**Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor**

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”  
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti  
Administratsiyasi huzuridagi Axborot  
va ommaviy kommunikatsiyalar  
agentligi tomonidan **№C-5669363**  
reyestr raqami tartibi bo'yicha  
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**



# MUNDARIJA

Bo'lajak chet tili o'qituvchilarining innovatsion pedagogik kompetentligini rivojlantirish mexanizmi .....	10
<a href="#">Mirzaraxmonova Maftuna Ibroximjon qizi</a>	
Elementlarini integratsiya qilish: nazariy va amaliy yondashuv .....	13
<a href="#">Ne'matov Karimjon Shavkat o'g'li</a>	
O'qish savodxonligi darslarida kitobxonlik kompetensiyasini rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari ...	19
<a href="#">Mahmudova Shoira Shavkat qizi</a>	
O'zbek milliy musiqasi asosida talablarda estetik did va ijro madaniyatini rivojlantirish metodikasi.....	25
<a href="#">Gadoyeva Muborak Jumaqulovna</a>	
O'quvchilarning yozuv kompetensiyasini baholash mezonlarini takomillashtirish masalalari.....	30
<a href="#">Abdurashidova Xafiza Abdurashidovna</a>	
Xurshid Do'st Muhammad qissalarida rivoyatchi strategiyasi.....	34
<a href="#">Uzoqova Nargiza Yuldosh qizi</a>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarining ahamiyati .....	37
<a href="#">Eshpulatov Shakir Nabiyevich, Ahrorova Ozoda Amriddinovna</a>	
"Xonada o'simliklarni o'stirish" intellekt xaritasi (Mind Map) yordamida o'quvchilarda ekologik tarbiya va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish .....	41
<a href="#">G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich</a>	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlarning tashkiliy-pedagogik jihatlari.....	46
<a href="#">Joldasov Ixtiyor Suyundikovich</a>	



# BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILARIDA TANQIDIY FIKRLASHNI SHAKLLANTIRISHDA INNOVATSION TEKNOLOGIYALARINING AHAMIYATI

Eshpulatov Shakir Nabiyevich

SaDU UF Pedagogika va jismoniy madaniyat  
kafedrası o'qituvchisi

Ahrorova Ozoda Amriddinovna

SaDU UF Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti  
4-bosqich talabasi

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich sinflar o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati keng yoritilgan. Tadqiqot jarayonida tanqidiy fikrlash tushunchasining mohiyati, uning o'quvchilar intellektual rivojiga ta'siri hamda pedagogik va psixologik asoslari tahlil qilindi. Shuningdek, zamonaviy ta'lim tizimida qo'llanilayotgan interaktiv metodlar, guruhli ishlar, muammoli vaziyatlar, o'yinli faoliyatlar va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'quvchilarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish, solishtirish va asosli xulosalar chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishdagi samaradorligi ochib berildi. Tadqiqot davomida kuzatish, tajriba-sinov, suhbat va tahlil metodlaridan foydalanilib, innovatsion yondashuvlarning amaliy natijalari o'rganildi. Olingan natijalar shuni ko'rsatdiki, dars jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarning faolligini oshiradi, ularning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi. Shuningdek, o'qituvchining darsni to'g'ri tashkil etishi va o'quvchilarga erkin fikr bildirish imkonini yaratishi muhim omil sifatida e'tirof etildi. Maqola yakunida ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish bo'yicha amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan bo'lib, ular boshlang'ich ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** boshlang'ich ta'lim, tanqidiy fikrlash, innovatsion texnologiyalar, interaktiv metodlar, pedagogik yondashuv, ijodiy fikrlash, muammoli vaziyat, guruhli ishlar, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, ta'lim samaradorligi

**Abstract:** This article discusses the role and importance of innovative technologies in developing critical thinking among primary school students. The study analyzes the essence of critical thinking, its impact on students' intellectual development, as well as its pedagogical and psychological foundations. It also highlights the effectiveness of interactive methods, group work, problem-based situations, game-based activities, and information and communication technologies in developing students' independent thinking, analytical skills, comparison, and the ability to draw well-reasoned conclusions. During the research, observation, experimental work, interviews, and analysis methods were used to study the practical outcomes of innovative approaches. The results showed that the use of modern pedagogical technologies in the learning process increases students' activity and enhances their creative and critical thinking abilities. It was also emphasized that the teacher's proper organization of the lesson and creating opportunities for students to express their opinions freely are important factors. The article concludes with practical recommendations for the effective use of innovative technologies in education, which contribute to improving the quality of primary education.

**Key words:** primary education, critical thinking, innovative technologies, interactive methods, pedagogical approach, creative thinking, problem-based situations, group work, information and communication technologies, educational effectiveness.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается роль и значение инновационных технологий в формировании критического мышления у учащихся начальных классов. В ходе исследования проанализированы сущность критического мышления, его влияние на интеллектуальное развитие учащихся, а также педагогические и психологические основы. Также раскрыта эффективность интерактивных методов, групповой работы, проблемных ситуаций, игровых форм деятельности и информационно-коммуникационных технологий в развитии самостоятельного мышления, анализа, сравнения и умения делать обоснованные выводы. В процессе исследования использовались методы наблюдения, экспериментальной работы, беседы и анализа, что позволило изучить практические результаты применения инновационных подходов. Полученные результаты показали, что использование современных педагогических технологий в учебном процессе повышает активность учащихся и способствует развитию их творческого и критического мышления. Также подчеркнута важность правильной организации урока учителем и создания условий для свободного выражения мнений учащихся. В заключении предложены практические рекомендации по эффективному использованию инновационных технологий, направленные на повышение качества начального образования.

**Ключевые слова:** начальное образование, критическое мышление, инновационные технологии, интерактивные методы, педагогический подход, творческое мышление, проблемные ситуации, групповая работа, информационно-коммуникационные технологии, эффективность образования.

## KIRISH

Tanqidiy fikrlash bugungi kunda ta'lim jarayonining eng muhim kompetensiyalaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichida bu ko'nikmani shakllantirish o'quvchilarning keyingi intellektual va ijtimoiy rivojlanishiga mustahkam zamin yaratadi. Tanqidiy fikrlash -bu faqatgina shubha qilish yoki tanqid qilish emas, balki dalillarga asoslangan xulosalar chiqarish, turli nuqtai nazarlarni solishtirish, muammoli vaziyatlarga ijodiy yondashish va eng maqbul yechimni topish jarayonidir <sup>[1]</sup>.

XXI asrda ta'lim tizimining eng asosiy maqsadlaridan biri – o'quvchilarda ijodiy va tanqidi fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Ushbu qobiliyatlar o'quvchilarning nafaqat ta'lim olgan sohalarida, balki kundalik hayotda ham muammolarni hal qilishda, qarorlar qabul qilishda va innovatsion yondashuvlarni qo'llashda muhim o'rin tutadi. O'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda metodik yondashuvlar va o'qituvchining roli katta ahamiyatga ega. Ta'lim jarayonini xalqaro baholash dasturlari, masalan, PISA (Program for International Student Assessment), TIMSS (Trends in International Mathematics and Science Study) va PIRLS (Progress in International Reading Literacy Study) asosida qayta ko'rib chiqish va o'quvchilarning fikrlash ko'nikmalarini baholash ta'lim tizimining samaradorligini oshirishda yordam beradi <sup>[2]</sup>.

Zamonaviy oqitish jarayonida ijobiy samara ko'rsatuvchi usullardan biri bu "guruhlarga ijodiy topshiriqlar berish"dir. Boshlang'ich sinflarda asosiy vazifa o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishdir. Bu muammoni hal etishda mening asosiy maqsadim – ta'limning yangi metod va usullarini qo'llash orqali bolaning yoshligidanoq dunyoga o'z qarashini shakllantirishga keng yo'l ochishdir <sup>[3]</sup>. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida ijodiy fikrlashni shakllantirish uchun quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

1. **O'yinli faoliyat** – Dars jarayonida dramatik o'yinlar, rolli o'yinlar va didaktik o'yinlardan foydalanish.
2. **Muammoli vaziyatlar** – Savol-javob, taxmin qilish, masalani turli yo'llar bilan yechish orqali mantiqiy va ijodiy fikrlashni rag'batlantirish.
3. **Guruhli ishlar** – Birgalikda muhokama qilish, ijodiy topshiriqlarni yechishda hamkorlik qilish.
4. **Tasviriy san'at va hikoya tuzish** – Rasm asosida ertak tuzish, hikoyani davom ettirish kabi mashqlar.
5. **STEAM yondashuvi** – Fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika integratsiyasi orqali fikr yuritishni faollashtirish <sup>[4]</sup>.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tanqidiy fikrlash tushunchasi falsafiy, psixologik va pedagogik yondashuvlarda turlicha talqin qilingan.

R. Ennis tanqidiy fikrlashni "qaror qabul qilish va muammoni hal qilishga yo'naltirilgan oqilona va reflektiv fikrlash" deb ta'riflaydi <sup>[6]</sup>. Sharq uyg'onish davri olimlari ham tanqidiy tafakkurning rivojiga ulkan hissa qo'shgan.

Al-Farobiy "Aql haqida risola" (Risala fi-l-axlaq) asarida tafakkurni insonning eng oliy qobiliyati sifatida sharhlab, mantiqiy tahlil va bilishga yo'naltirilgan fikrlash tamoyillarini asoslagan.

Ibn Sino "Kitob ash-Shifo" va "Donishnoma" asarlarida mantiqiy fikrlash, dalillash, sabab-oqibat tahlili, tajribaga asoslangan xulosa chiqarishni tanqidiy fikrlashning poydevori sifatida bayon qilgan <sup>[7]</sup>.

V.V. Davydov va L.V. Zankov kabi pedagog-olimlar ijodiy fikrlashni o'stirish uchun muammoli ta'lim metodini, ya'ni o'quvchini muammoli vaziyatga tushirib, o'z mustaqil fikrini shakllantirishga undash zarurligini ta'kidlaydi <sup>[8]</sup>.



## TADQIQOT METADOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirishda innovatsion texnologiyalarning ahamiyatini aniqlash uchun nazariy va amaliy metodlardan foydalanildi. Nazariy bosqichda pedagogik va psixologik adabiyotlar tahlil qilinib, ilg'or xorijiy tajribalar o'rganildi. Amaliy jarayonda kuzatish, tajriba-sinov, suhbat va savolnoma metodlari qo'llanildi. Darslarda interaktiv usullar, guruhli ishlar va muammoli vaziyatlar joriy etilib, ularning samaradorligi tahlil qilindi. Shuningdek, an'anaviy va innovatsion yondashuvlar natijalari taqqoslandi hamda o'quvchilarning tanqidiy fikrlash darajasi diagnostik topshiriqlar orqali baholandi. Olingan natijalar tahlil qilinib, innovatsion texnologiyalar tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda samarali ekanligi aniqlandi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish uchun dars jarayonida interaktiv va innovatsion metodlardan muntazam foydalanish maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa, o'yinli faoliyatlar, guruhli ishlar va muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar o'quvchilarning mustaqil fikr yuritishiga yordam beradi.

Shuningdek, o'qituvchilar tomonidan axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanish, darslarni yanada qiziqarli va tushunarli tashkil etishga xizmat qiladi. Har bir o'quvchining fikrini erkin ifoda etishga imkon yaratish, ularni rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash ham muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari, o'qituvchilar uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalar bo'yicha malaka oshirish kurslarini kengaytirish ham ijobiy natija beradi. Shu orqali ta'lim jarayonining sifati oshadi va o'quvchilarda tanqidiy fikrlash ko'nikmalari yanada rivojlanadi.

Pedagogik metod/ Texnologiya	Qo'llash usuli	Kutilayotgan natija	Misollar / Amaliyot
<b>Loyiha asosidagi o'qitish (Project-based learning)</b>	O'quvchilar real vaziyatlarda loyihalar yaratadi, resurslarni tahlil qiladi, natijalarni taqdim etadi	Mustaqil fikrlash, analitik ko'nikmalar, qaror qabul qilish	O'quvchilar ijtimoiy muammolarni tahlil qiluvchi mini-loyihalar yaratadi
<b>Interaktiv mashg'ulotlar</b>	Savol-javob, muammolarni hal qilish, rolli o'yinlar	Tanqidiy fikrlash, ijodiy yondashuv, fikr almashish	"Dumaloq stol", "Akademik munozara", "Mozharo metodi"
<b>Guruh ishlari</b>	O'quvchilar kichik guruhlarda muammoni tahlil qiladi va yechim taklif qiladi	Hamkorlik, konstruktiv bahs, qaror chiqarish	Guruh prezentatsiyalari, muammo yechimlarini muhokama qilish
<b>Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT)</b>	Onlayn testlar, forumlar, elektron taqdimotlar, vizual ma'lumotlar	Ma'lumotlarni tahlil qilish, solishtirish, asosli xulosalar chiqarish	Moodle platformasi, interaktiv diagrammalar, elektron portfoliolar
<b>Motivatsion yondashuv</b>	O'quvchilarda qiziqish uyg'otish, shaxsiy mas'uliyatni shakllantirish	Faol ishtirok, mas'uliyat, ijodiy yondashuv	Rag'batlantirish tizimi, maqsad qo'yish va baholash
<b>Muammolarni hal qilish metodlari</b>	Haqiqiy yoki simulyatsiya qilingan muammolarni tahlil qilish	Analitik fikrlash, qaror chiqarish, ijodiy yechimlar	"Case study" usuli, kritikallik vaziyatlarni tahlil qilish

## XULOSA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida tanqidiy fikrlashni shakllantirish bugungi ta'lim tizimining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ushbu ko'nikma o'quvchilarning nafaqat bilim olish jarayonida, balki kundalik hayotda ham mustaqil qaror qabul qilish, muammolarni tahlil qilish va turli vaziyatlarga to'g'ri yondashishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, dars jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo'llash, xususan, interaktiv metodlar, guruhli ishlar, muammoli vaziyatlar va AKT vositalaridan foydalanish o'quvchilarning fikrlash faolligini sezilarli darajada oshiradi. Bunday yondashuvlar orqali o'quvchilar o'z fikrini erkin bayon qilishga, boshqalarning qarashlarini tahlil qilishga va asosli xulosalar chiqarishga o'rganadi.

Shuningdek, o'qituvchining to'g'ri metod tanlashi, darsni samarali tashkil etishi va o'quvchilarga erkin fikrlash muhitini yaratib berishi tanqidiy fikrlashni rivojlantirishda hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi. Nazariy va amaliy tahlillar asosida aytish mumkinki, innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish

boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Umuman olganda, tanqidiy fikrlashni shakllantirishga qaratilgan zamonaviy yondashuvlar ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi va kelajakda raqobatbardosh, mustaqil fikrlaydigan shaxslarni tarbiyalashda muhim omil bo'lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. "Boshlang'ich sinflarda tanqidiy fikrlashning ahamiyati" // Global Science Review. – 2025. – T. 13. – № 12. – B. 306–313.
2. "Ta'limda ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish: O'zbekistondagi imkoniyatlar va xalqaro tajribalar" // Global Science Review. – 2025. – T. 1. – № 1. – B. 138–142.
3. Sarvinoz T. "Boshlang'ich sinflarda tanqidiy fikrlash qobiliyatlarini shakllantirish" // Elita.uz elektron ilmiy jurnali. – 2024. – T. 3. – № 1. – B. 197–200.
4. Saitovna X. Y. "Boshlang'ich sinflarda ijodiy fikrlashni rivojlantirishning innovatsion yondashuvlari" // Pedagogik islohotlar va ularning yechimlari. – 2025. – T. 14. – № 2. – B. 215–217.
5. Abdusattorovna Q. M. "Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tanqidiy va mantiqiy fikrlashlarini o'stirish usullari" // Ta'lim, tarbiya va innovatsiyalar jurnali. – 2025. – T. 1. – № 5. – B. 12–17.
6. Ayapbergenovich B. R. "Tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish usullari" // World of Science. – 2025. – T. 8. – № 10. – B. 7–10.
7. Boymirza o'g'li S. I. "Tanqidiy fikrlash tushunchasining falsafiy, psixologik va pedagogik asoslari" // Universal Journal of Technology and Innovation. – 2025. – T. 3. – № 30. – B. 39–46.
8. Yakubbayevich R., O. R. U. U. Abdullayevich. "Talabalarda kreativlikni shakllantirish yo'nalishlari" // World of Science. – 2025. – T. 8. – № 6. – B. 194–199.
9. Axmadovna S. M.. "Tanqidiy tahlil qilish ko'nikmalarini o'qitishda innovatsion texnologiyalar" // Tanqidiy nazar, tahliliy tafakkur va innovatsion g'oyalari. – 2026. – T. 2. – № 7. – B. 66–69.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №5(3)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzirimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.